

Chet tillarini o'qitishda online ta'limning xorijdagi yutuq va muammolari

Ilmiy rahbar: Shukurova Nodira Baxtiyorovna

Tadqiqotchi: 111- guruh talabasi

Kamolova Zebuniso Ibrohimjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola chet tillarini o'qitishda online ta'lim, uni qo'llashdagi zamonaviy jihozlar va metodlar va xorijdagi yutug'i hamda muammolari haqida so'z boradi.

Hozirgi texnologiya rivojlanayotgan XXI asrda ta'limda juda ko'plab o'zgarishlar ketmoqda. Barchamizga ma'lumki, 2019-yilda butun dunyoda moliyaviy inqiroz vujudga keldi. Bunga sabab COVID-19 virusi sababchi bo'ldi. Shu bilan birga butun dunyodagi katta va kichik oliy ta'limga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Talabalarning ta'lim olishini uzluksiz olib borish uchun online (masofaviy ta'lim) strukturasini yanada mukammal ishlab chiqishdi. Ta'limning hamma yo'nalishlariga online tushunchasi asta-sekin kirib kela boshladi. Bunday ta'lim ko'plab yo'nalishlarga o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Shunday yo'nalishlar borki, online yoki offline ekanligiga qaramasdan darsning sifatini yo'qotilmaydi. Ba'zi bir yo'nalishda esa amaliy va nazariy darajasi yuqori bilim, online ekanligidan ko'ra offline bo'lishi tarafdori ekani yaqqol ko'rinib turadi.

Masalan: Chet tillarini o'rganish uchun nazariy bilimning o'zi ham kifoya q ilishi mumkin. Talaba online darslarda ham yaxshi qatnashgan holda bilim salohiyatini oshirish imkoniyatiga ega. Xorijiy davlatlarda va hozirgi kunda bizning oliy ta'limda ham darslar doimo o'qituvchi tomonidan bilim ko'nikmalarini 30% bersa, talaba 70% o'zi o'zlashtiradi. Bundan korinib turibdiki, online darslar ta'limning bu yo'nalishiga sezilarli darajada katta ta'sir ko'rsatmaydi.

Endi online ta'limning boshqa bir yo'nalishlariga yomon ta'sir qilishini ko'rib chiqishimiz mumkin. Ta'limda amaliyotning roli katta yo'nalishlariga, online (masofaviy ta'lim) yaxshi ta'sir qiladi deb ayta olmaymiz. Misol tariqasida tibbiyot sohalarida masofaviy ta'lim bilim salohiyatiga yomon ta'sir qilayotganini, hozirgi kunda hammaga yaqqol ko'rinib turibdi. Chunki amaliyot o'z vaqtida o'tilmagan, faqatgina nazariy bilim bilan talaba kifoyalangan holos. Bu esa bilim darajasini sustlashishga hamda, bu sohada esa kuchli tibbiyot egalarini kamayib borishiga sababchi bo'lib qolmoqda.

Metod turlari:

Birgalikda o'rganish: Ushbu ta'lim texnologiyasi guruhidagi talabalarning o'zaro g'oyalari va biriklik kuchi, bunday yo'nalishlarda talabalar nafaqat yakkalik balkim bir jamoa bo'lib ishlash, bilim ko'nikmalarini birgalikda oshirish, masofaviy ta'lim bo'lsada, bir birlari bilan nazariy olgan bilim metodlarini, amaliyotda birgalikda qo'llash, jamoaviy ishlashni yakkalikdan qochishni o'rganish, online

darslarda “ta’lim- o’qituvchi-kuchli bilim” tizimida birgalikda hamkorlik va online darslardan so’ng amaliy yo’nalishni ham amalga oshirish.

Masofaviy ta’limda o’quv texnologiyasi: Ushbu ta’lim texnologiyasi ommabopligi, birinchi navbatda, ta’lim sharoitlarni yuksak darajada, qiyinsizliklarsiz talabaga yetkazib berish uchun o’qituvchi tomonidan zamonaviy texnik jihozlar bilan taminlanish, talabani ham shunday sharoitga moslashtirish, internet tezligini oshirish, uyali aloqa vositalari bilan uzviksiz bog’lanib turish. Talabaning qobiliyatlarini o’stirish, uning o’zi bilmagan qirralarini masofaviy ta’limda bo’lsa ham o’qituvchi tomonidan o’stirish muhim omil hisoblanadi. Kelajak avlod uchun kerakli va bilim darajadan yuqori saviyali kadrlarni yetishtirish ham zimmasiga yuklatiladi.

1. Foydalanilgan adabiyotlar:

2. <https://hozir.org/1-masofaviy-talim-tushunchasi-masofaviy-oqitish-usullari-masof.html>
3. [Suvorova N. Online training: new approaches \[Text\]: // Teacher. - 2000. - №1. - p. 33 – 41](#)
4. Paluanova, X. D. "Derivation-semantic principles of ecological terms in English, Uzbek, Russian and Karakalpak languages: Dr. phil. sci. diss." (2016).
5. Paluanova, H. "Reading comprehension and its development in teaching foreign languages." Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения 50-2 (2016): 67-71.